

BAKTERIAL ICHBURUG‘ BILAN OG‘RIGAN BEMORLARNING IMMUN KO‘RSATKICHLARIDAGI AYRIM O‘ZGARISHLAR

Shayqulov Hamza Shodievich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti mikrobiologiya,
virusologiya va immunologiya kafedrası.

hamzashayqulov@gmail.com

Narziev Djavoxir Ubaydullaevich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti mikrobiologiya,
virusologiya va immunologiya kafedrası.

ANNOTATSIYA

Maqolada ichak o‘tkir yuqumli bakterial kasalliklaridan biri ichburug‘ bilan kasallangan 17 yoshdan 36 yoshgacha bo‘lgan 64 nafar bemorlarning perefipik qonidagi T-, B- va “0”- limfotsitlar miqdorini va qon zardobidagi komplement faolligi o‘rganilgan natijalari bayon etilgan. Nazorat guruhi sifatida 17 nafar ayol va 21 nafar erkak qiyoslash guruhi sifatida tekshirilgan.

Kalit so‘zlar: *ichburug‘, dizenteriya, immun tizimi, T- limfotsit, T-xelper, T-supressor, B-limfotsit, “0”- limfotsit, komplement, C3, C4, C3a, C5, C5a, monoklonal antitelo, CD3, CD4, CD8.*

Kirish. So‘nggi yillarda dunyoda o‘tkir diareya bilan kasallanish tendensiyasi kuzatilmoqda [1,3,4,9-17], ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, shigellyoz bilan kasallanish muhim o‘rinni egallamoqda [2,5,10,12-14]. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda shigellalar tufayli kelib chiquvchi ichburug‘ bilan kasallanish sur‘ati bir oz past [18, 20-29, 31]. Shunga qaramasdan JSST ma‘lumotlariga ko‘ra, so‘ngi yillarda qonli diareya deya tavsiflanuvchi kasallik holatlari bu mamlakatlarda 80 milliongacha qayd etilib, ulardan har yili 700 mingga yaqini o‘lim bilan yakunlanmoqda. Ushbu muammoning dolzarbligiga yana bir dalil JSST tomonidan diareya kasalliklariga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro dasturning qabul qilinishidir.

Ma'lumki, ichburug' bilan kasallangan bemorlarda boshqa tizimlar bilan bir qatorda bemorning immun tizimi ham jabirlanadi. Ushbu muammoga qaratilgan adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar o'zaro ziddiyatli va noaniqdir [7,14,25].

Ishning maqsadi. O'tkir bakterial ichburug' bilan og'rikan bemorlarning preferik qonida T-, B- va "0"- limfotsitlar miqdorini va qon zardobidagi komplement faolligini o'rganish orqali immun tizimidagi o'zgarishlarni aniqlash.

Materiallar va usullar. 17 yoshdan 36 yoshgacha bo'lgan o'tkir bakterial ichburug' bilan kasallangan 64 bemor kuzatuvda bo'ldi. Tashxisni tasdiqlash klinik-instrumental va bakteriologik tadqiqot usullari orqali amalga oshirildi. Tekshirilgan guruhda 17 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan 29 nafar ayol va 18 yoshdan 36 yoshgacha bo'lgan 35 nafar erkak bo'lib, 19 nafar bemorda kasallikning engil darajasi, 27 nafarida - o'rtacha va 18 nafarida - og'ir darajadagi klinik tashxis qo'yilgan. Ularda boshqa yo'ldosh kasalliklari aniqlanmagan. Nazorat guruhi sifatida 17 nafar ayol va 21 nafar erkak qiyoslash guruhi sifatida tekshirildi. T-limfotsitlar, T-xelperlar, T-supressorlar va B-limfotsitlarni aniqlashda CD3 (T-limfotsit), CD4 (T - xelper), CD8 (T-supressor) antigenlariga qarshi monoklonal antitelolar (mAT) bilan qoplangan eritrotsitlar diagnostikumlaridan foydalanildi.

Komplement tizimining C3, C4, C3a, C5, C5a komponentlari va H - omil hamda C1-ingibitorini miqdoriy va sifatliy baholash qattiq fazali ELISA testi tizimi yordamida amalga oshirildi.

Olingan natijalar. O'tkir bakterial ichburug' bilan og'rikan bemorlarning immun ko'rsatkichlarida T - hujayralar populyatsiyasining supressiya va B - hujayralarining faollashishi va xuddi shunday qon zardobidagi komplement faolligining pasayishi kuzatiladi. Ushbu o'zgarishlarning qay darajada namoyon bo'lishi bevosita kasallikning klinik ko'rinishidagi og'irligi darajasiga bog'liq.

1-jadval


Limfotsitlarning qosiy ko'rsatkichlari.

Limfotsitlar turi	Sog'lom		Kasallik boshlanishida	
	%	abs	%	abs
T - limfotsitlar	51,7± 0,8	1000,9± 55,2	36,6± 1,1	646,4± 22,2
B - limfotsitlar	13,4± 0,4	259,8± 15,7	13,7± 1,1	245,7± 22,4
"0" - limfotsitlar	34,9± 0,8	663,4± 32,2	49,7± 1,5	916,1±37,6

Sog'lom odamlarda T -, B - va "0" – limfotsit hujayralar soni mos ravishda 51,7 ± 0,8, 13,4 ± 0,4 va 34,9 ± 0,8% ni (1 mkl qonda 1000,9 ± 55,2, 259,8 ± 15,7 va 663,4 ± 32,2 ta hujayralarni) tashkil etdi.

1 – rasm

Limfotsitlarning qyosiy diagrammasi



O'tkir ichburug' bilan og'riqan bemorlarda kasallikning boshlanish davrida bu ko'rsatkich $36,6 \pm 1,1$, $13,7 \pm 1,1$ va $49,7 \pm 1,5\%$ (1 mkl qonda $646,4 \pm 22,2$, $245,7 \pm 22,4$ va $916,1 \pm 37,6$ hujayralarni) tashkil etdi.

Xulosa. Kasallikning og'ir shakllarida esa T - hujayralari populyatsiyasi ko'proq bostiriladi (supressiyalandi). Kasallikning rivojlanishi bilan birga T - hujayralarning etishmovchiligi sezilarli darajada namoyon bo'ldi, B - hujayralar soni ortdi, "0" hujayralar sonida esa jiddiy o'zgarishlar kuzatilmadi. O'tkir ichburug' bilan og'riqan bemorlarda komplement titri sog'lom odamlardagi $58,1 \pm 1,0$ birlikka nisbatan sezilarli darajada - $46,9 \pm 0,8$ birlikgacha pasayishi kuzatildi. Komplementning bunday ko'rsatkichi hatto bemorlarlar shifoxonadan chiqarilishi davrida ham sog'lom odamlarga qaraganda ancha past $51,1 \pm 0,7$ birlikda saqlanib qoldi.

Komplementning miqdoriy ko'rsatkich darajasi kasallikning simptomsiz va bilinar-bilinmas shakllarida $50,6 \pm 1,1$, engil shakllarida - $49,8 \pm 1,3$, o'rtacha og'irlikda bo'lganda - $44,6 \pm 0,8$ va og'ir klinik shakllarda - $27,3 \pm 1,6$ birlikni tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Abdumuminova R. N., Sh B. R., Bulyaev Z. K. *On The Importance Of The Human Body, Nitrates //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research.* – 2021. – T. 3. – №. 04. – C. 150-153.
2. Hamza, S., Muzaffar, A. ., Dildora, S., & Ulug`bek, A. . (2023). BACILLUS THURINGIENSIS BAKTERIYA SHTAMMLARINING PHASEOLUS VULGARIS O`SIMLIGI BIOMETRIK KO`RSATKICHLARIGA VA RIVOJLANISHIGA TA`SIRI. *Scientific Impulse*, 1(6), 327–332. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4355>
3. Naimova Z. et al. *Hygienic Assessment Of Emission Influence From A Chemical Plant On Population`s Household Conditions, Well-Being And Health //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research.* – 2021. – T. 3. – №. 01. – C. 76-80.
4. Naimova Zaynab Sattarovna, & Shayqulov Hamza Shodievich. (2023). KIMYO ZAVODIGA YAQIN HUDUDLARIDA YASHOVCHI BOLALAR VA O`SMIRLARDAGI ANTROPOMETRIK KO`RSATGICHLAR. *GOLDEN BRAIN*, 1(5), 59–64. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7664441>
5. Normamatovich F. P. et al. *RATIONALE FOR THE APPLICATION OF THE HACCP SYSTEM IN THE PRODUCTION OF FUNCTIONAL FOOD PRODUCTS //European Journal of Molecular & Clinical Medicine.* – 2021. – T. 8. – №. 3. – C. 1535-1539.
6. Sh S. H., Mamarasulova N. I. *ANTIBIOTIKLAR VA ANTIBIOTIKOREZISTENT LAKTOBAKTERIYALARNI BIRGALIKDA BOLALARDAGI ESHERIXIOZ KASALLIKLARNI DAVOLASHDA QO`LLANISHI.* – 2023.
7. Sh S. H., Mamarasulova N. I. *O`TKIR DIAREYALARDA ESHERIXIYALARNING AJRALISHI.* – 2023.
8. Tuxtarov B., Baratova R., Bulyaev Z. *IF THE SOIL IS HEALTHY //InterConf.* – 2021.
9. Мухамедов И. М., Юсупов М. И., Шайкулов Х. Ш. *ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ ДИАГНОЗ ЭНТЕРОКОЛИТОВ У ДЕТЕЙ //Innova.* – 2022. – №. 2 (27). – C. 35-39.
10. Нарзиев Д., Шайкулов Х. *Чувствительность к антибиотикам salmonella typhimurium, находящихся в составе биопленок //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences.* – 2023. – T. 3. – №. 1. – C. 60-64.
11. Одилова Г. М., Шайкулов Х. Ш., Хусанов Э. У. *Ультраструктура слизистой толстой кишки у больных острой дизентерией //Астана медициналық журналы.* – 2022. – №. 51. – C. 62-68.
12. Расулова , М. ., Юлаева , И. ., & Шодиев , Ж. . (2023). ПЕРЕЛОМЫ КОСТЕЙ НОСА В ПРАКТИКЕ СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1 Part 1), 78–84. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/8607>

13. Расулова М. Р., Юлаева И. А., Шодиев Ж. Х. *СОВРЕМЕННАЯ КЛАССИФИКАЦИЯХ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА* //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 120-127.

14. Расулова, М., Сайдалиева, М., & Бекмурзаева, З. (2023). *УСТАНОВЛЕНИЕ ДАВНОСТИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА МЕТОДАМИ ЛУЧЕВОЙ ДИАГНОСТИКИ*. SCHOLAR, 1(4), 28–31. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1653>

15. С., Н. З. ., Б, М. М., А., К. Х. ., А., К. Х. ., S., N. Z. ., В, М. М. ., & А. К. Х. . (2022). *Влияние Выбросов Химического Производства На Состояние Здоровья Детей И Подростков*. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIIY JURNALI, 288–292. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/4278>

16. Саъдинов П. и др. *Клинико-эпидемиологическая характеристика стафилококковых энтероколитов у детей раннего возраста* //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2014. – №. 3 (79). – С. 151-152.

17. Шайкулов Х. Ш., Худаярова Г. Н. *Развитие кишечных расстройств у детей грудного возраста, вызванных различными микроорганизмами и гельминтами* //Педиатр. – 2017. – Т. 8. – №. 5.

18. Шайкулов Х., Исокулова М., Маматова М. *СТЕПЕНЬ БАКТЕРИОЦИНОГЕННОСТИ АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТНЫХ ШТАММОВ СТАФИЛОКОККОВ, ВЫДЕЛЕННЫХ В САМАРКАНДЕ* //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 1. – С. 199-202.

19. Шайкулов, Х. Ш. *Антибиотикочувствительность гемолитических E.coli, выделенных от детей больных эшерихиозом* / Х. Ш. Шайкулов, М. Р. Расулова // Молодой ученый. – 2023. – № 4(451). – С. 489-491. – EDN AJSWBL.

20. Шайкулов Хамза Шодиевич, Нарзиев Джавохир Убайдуллаевич **БОЛАЛАР ИЧАК ЭШЕРИХИОЗИНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТ ЛАКТОБАКТЕРИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ** // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2023. №17. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-ichak-esherihiozini-davolashda-antibiotikorezistent-laktobakteriyalardan-foydalanishning-samaradorligi>

21. Юсупов М., Шайкулов Х., Одилова Г. *Антигенное сходство e. coli, выделенных от матерей и их детей* //Журнал вестник врача. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 130-133.

22. Юсупов, М. И., Х. Ш. Шайкулов, and Г. М. Одилова. "Антигенные сходства штаммов e. coli, выделенных от детей и их матерей." *Проблемы биологии и медицины* 6 (2020): 202-205.

23. Normamatovich F. P., Sagatbaevich K. A., Chorshanbievich K. N. *A PLACE IN THE NUTRITION OF THE POPULATION OF UZBEKISTAN FROM NATIONAL CONFECTIONERY, "NAVAT"* //World Bulletin of Public Health. – 2022. – Т. 10. – С. 79-80.

24. Хидиров Н. Ч., Нурмаматова К. Ч. БЭ Тухтаров //EDITOR COORDINATOR. – 2020. – С. 825.